

**Ishga qabul qilinayotganida manfaatlar to'qnashuvi
mavjudligi/mavjud emasligi to'g'risidagi arizaning**

NAMUNAVIY SHAKLI

F.I.O. (to'liq) _____

Nomzod da'vogarlik qilayotgan tarkibiy bo'linma nomi _____

Nomzod da'vogarlik qilayotgan lavozim _____

To'ldirilgan sana _____

Ushbu arizada quyidagi atamalar qo'llanadi:

yaqin qarindoshlar – qarindosh yoki quda tomondan qarindosh bo'lgan shaxslar, ya'ni ota-ona, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillar, er-xotin, farzand, shu jumladan, farzandlikka olinganlar, bobo, buvi, nevaralar, shuningdek, er-xotinning ota-onasi, tug'ishgan va o'gay aka-uka hamda opa-singillari.

aloqador shaxslar – xodim bilan tijorat tashkilotlarining ustav kapitalida ishtirok etadigan shaxslar, aksiyalari Respublika fond birjasida ommaviy muomalada bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlarining besh foizidan kam bo'lgan miqdordagi aksiyaga ega ekanligi bundan mustasno;

manfaatlar to'qnashuvi – shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik vazirlik tizimi xodimining mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat;

xodimning shaxsiy manfaatdorligi – xodimning o'z xizmat vazifalarini bajarish doirasida yaqin qarindoshi yoki o'ziga aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan xodimning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan pul mablag'lari, moddiy yoki nomoddiy qiymatliklar, boshqa mol-mulk, boylik va imtiyozlar ko'rinishida shaxsiy naf olish imkoniyati (*ijtimoiy, mulkiy, moliyaviy, siyosiy va boshqa manfaatlari*);

1.	Agar sizning yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar vazirlik tizimida ishlayotgan bo'lsa, ularning lavozimini va tarkibiy bo'linmasini ko'rsating (agar ular ishlamasa, "yo'q" deb yozing).
	Ha / Yo'q
	<i>Izohlar:</i>

2.	Boshqaruv organi (<i>boshqaruv, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va h. k.</i>) xodimi, a'zosi, qandaydir tashkilot direktori yoki vakilimisiz? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek, mazkur tashkilotlardan qandaydir kompensatsiya olishingizdan qat'i nazar har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o'ringizni hisobga oling. (Izoh: "Ha" yoki "Yo'q" javoblaridan birini tanlang; agar javobingiz "Ha" bo'lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va ulardagi o'ringiz (lavozimingiz)ni ko'rsatib o'ting.
	Ha / Yo'q
	Izohlar:
3.	Sizda / yaqin qarindoshlaringizda biror bir tashkilotda qandaydir moliyaviy manfaatdorlik bormi (<i>jumladan, ustav kapitalida ishtirok etish, aksiya va obligatsiyalarga egalik qilish</i>) yoki Siz boshqa tarzda bunday tashkilotlar qarorlariga ta'sir ko'rsata olasizmi? (<i>agar siz har qanday tashkilotning ommaviy muomalada bo'lmagan aksiyalari yoki ustav kapitalidagi ulushi yoki har qanday tashkilotning Respublika fond birjasi yoki boshqa fond birjasining ommaviy muomalasida bo'lgan qimmatbaho qog'ozlarining 5 va undan ko'p foiziga egalik qilsangiz</i>) (Izoh: "Ha" yoki "Yo'q" javoblaridan birini belgilang; agar javobingiz "Ha" bo'lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va sizning ulardagi manfaatingiz turi, ustav kapitalidagi ishtirokingiz ulushi, aksiyalarga egalik qilish va h. k.larni ko'rsatib o'ting.)
	Ha / Yo'q
	Izohlar:
4.	Yaqin qarindoshlaringiz va/yoki sizga aloqador shaxslar davlat organlari va tashkilotlarida, ularning hududiy va tarkibiy bo'linmalarida muassasalarida ishlaydimi? (Izoh: "Ha" yoki "Yo'q" javoblaridan birini belgilang; agar javobingiz "Ha" bo'lsa, izohlar satrida bunday qarindosh(lar), aloqador shaxs (lar)ning F.I.O., uning (ularning) lavozimi va bo'linmasi/bo'limi/boshqarmasini qayd etgan holda aniq ish joyini ko'rsatib o'ting.)
5.	Ha / Yo'q
	Izohlar:
6.	Yaqin qarindoshlaringiz boshqaruv organlari (<i>boshqaruv, kuzatuv kengashi, direktorlar kengashi va h. k.</i>) xodimi, a'zosi, tashkilot direktori yoki vakilimi? Javob berayotganingizda tashkiliy-huquqiy va mulkiy shakli, shuningdek, mazkur tashkilotlardan qandaydir kompensatsiya olishidan qat'i nazar ularning har qanday tashkilot, tijorat va notijorat tashkilotlaridagi o'rnini hisobga oling. (Izoh: "Ha" yoki "Yo'q" javoblaridan birini belgilang; agar javobingiz "Ha" bo'lsa, izohlar satrida barcha tegishli tashkilotlar nomi va yaqin qarindoshingizning ulardagi o'rni (lavozimlari)ni ko'rsatib o'ting.)
	Ha / Yo'q
	Izohlar:

7.	Yaqin qarindoshlaringiz davlat organlarining mansabdor shaxsi hisoblanadimi? <i>(Izoh: “Ha” yoki “Yo‘q” javoblaridan birini belgilang; agar javobingiz “Ha” bo‘lsa, izohlar satrida <u>bunday qarindoshingiz (laringiz)ning F.I.O.), uning (ularning) lavozimi va tashkilot nomini ko‘rsatib o‘ting.)</u></i>
	Ha / Yo‘q
	<i>Izohlar:</i>
8.	Shaxsiy manfaatlaringiz, yaqin qarindoshlaringiz yoki aloqador shaxslar manfaatlari yo‘lida maxfiy hisoblangan, davlat organlari va tashkilotlarida ishlash davomida ma‘lum bo‘lgan axborotdan foydalanganmisiz <i>(jumladan, qandaydir jismoniy shaxs yoki tashkilotga oshkor qilganmisiz)?</i> <i>(Izoh: “Ha” yoki “Yo‘q” javoblaridan birini belgilang; agar javobingiz “Ha” bo‘lsa, izohlar satrida bu haqida batafsil yozing)</i>
	Ha / Yo‘q
	<i>Izohlar:</i>
9.	Manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin bo‘lgan boshqa shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa, ularni ko‘rsatib o‘ting
	<i>Izohlar:</i>
	Zarur topsangiz, har qanday qo‘shimcha ma‘lumotni ko‘rsating
	<i>Izohlar:</i>

Ushbu arizani imzolab, quyidagilarni tasdiqlayman:

- Menda manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan holatlar mavjud/mavjud emas (tegishli javobning tagini chizing).
- Men ushbu arizada aks etgan ma‘lumotlar to‘liqligi va haqqoniyligini kafolatlayman hamda men ushbu ma‘lumotlar tegishli huquq-tartibot organlari tomonidan tekshirilishiga rozilik bildiraman.
- Vazirlik tizimida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom talablariga binoan, men to‘ldirgan har qanday arizani haqqoniyligiga ta’sir qiladigan **yangi holatlar to‘g‘risida** vazirlikning tegishli tuzilmalariga darhol xabar berish majburiyatini olaman.

(F.I.O)

(imzo)

(sana)